XALQ DEPUTATLARI BO‘KA TUMAN KENGASHINING
Q A R O R I

2023 - yil 11 - yanvar VI-66-1-10-137-K/23 Bo‘ka tuman hokimligi

Bo‘ka tumanining 2023-yilgi mahalliy byudjetini tasdiqlash to‘g‘risida

O‘zbekiston Respublikasi “Mahalliy davlat hokimiyati to‘g‘risida”gi Qonunining 6, 24-moddalari, Budjet kodeksining 27,99-moddalari, “2023-yil uchun O‘zbekiston Respublikasining Davlat byudjeti to‘g‘risida”gi Qonuniga, O`zbekiston Respublikasi Hisob palatasining 2022-yil 24-oktyabrdagi 02-958-sonli va O‘zbekiston Respublikasi Moliya vazirligining 2022 yil 29-dekabrdagi 01/20-32/1020-sonli xatlarini hamda 2023-yil 6-yanvardagi VI-67-1-10-0-K/23-sonli Xalq deputatlari Toshkent viloyati kengashining "Toshkent viloyatining 2023-yil mahlliy byudjetini tasdiqlash to`g`risida"gi qarorini inobatga olib Toshkent viloyati xalq deputatlari Bo‘ka tuman kengashi,

QAROR QILADI:

1. O‘zbekiston Respublikasining “2023-yil uchun O‘zbekiston Respublikasining Davlat byudjeti to‘g‘risida”gi Qonuni hamda 2023-yil 6-yanvardagi VI-67-1-10-0-K/23-sonli Xalq deputatlari Toshkent viloyati kengashining "Toshkent viloyatining 2023-yil mahlliy byudjetini tasdiqlash to`g`risida"gi qarori ijro va rahbarlik uchun qabul qilinsin.

2. O‘zbekiston Respublikasining “2023-yil uchun O‘zbekiston Respublikasining Davlat byudjeti to‘g‘risida” 2022-yil 30-dekabrdagi O‘RQ-813-son Qonuniga (keyingi o‘rinlarda Qonun deb ataladi) muvofiq, tuman mahalliy byudjetining 2023 - yil uchun daromadlari **94 947 862,0** ming.so‘m va xarajatlari **171 396 426,0** ming.so‘m prognoz qilinganligi ma’lumot va ijro uchun qabul qilinsin.

3. 2023-yil uchun tuman mahalliy byudjeti daromadlari prognozi **1-ilova**ga muvofiq ma’lumot uchun qabul qilinsin.

4. Tuman byudjetidan 2023-yilgi byudjet mablag‘larini taqsimlovchilarga ajratiladigan xarajatlarning umumiy cheklangan miqdorlari 2-ilovaga muvofiq tasdiqlansin.

5. 2023-yil uchun tuman byudjetlariga umumdavlat soliqlaridan ajratmalar normativlari 3-ilovaga muvofiq tasdiqlansin.

Bunda, ajratmalar normativlari bo‘yicha tuman mahalliy byudjetiining taqsimotini o‘rnatilgan tartibda tuman bo‘yicha g‘aznachilik bo‘linmasi tomonidan amalga oshirilishi belgilab qo‘yilsin.

6. 2023-yil uchun tuman mahalliy byudjetining daromadlari va xarajatlarining prognozi 4-ilovaga

muvofiq ma’lumot uchun qabul qilinsin.

7. 2023 yil uchun viloyat byudjetidan tuman mahalliy byudjetiga ajratiladigan tartibga soluvchi byudjetlararo transfertlar miqdorlari 5-ilovaga muvofiq tasdiqlansin.

Bunda, tartibga soluvchi byudjetlararo transfertlar miqdorini tuman mahalliy byudjetlari daromadlari prognozi ijrosidan qat’iy nazar kamaytirishga yo‘l qo‘yilmasligi Qonunda belgilab qo‘yilganligi ma’lumot uchun qabul qilinsin.

8. 2023-yil uchun tuman byudjeti zaxira jamg‘armasi hajmlari **1 616 947,0** ming.so‘m miqdorida belgilansin.

Tuman budjetining 2023-yil uchun zaxira jamg‘armasi tegishli byudjetlar tasdiqlangan umumiy xarajatlarining kamida 1,0 foizi miqdorida shakllantirilsin.

Tuman byudjetini ijro etishda yuqori turuvchi byudjetdan ajratiladigan byudjetlararo transfertlarning prognozidan oshgan qismi uchun tegishli byudjetlarining zaxira jamg‘armalar miqdorlariga aniqlashtirish kiritilmasligi inobatga olinsin.

9. 2023-yil uchun tuman mahalliy byudjeti shaxsiy g‘azna hisobvaraqlarida turgan byudjet mablag‘larining yo‘l qo‘yiladigan eng kam miqdori **1 100 332,0** ming.so‘m 6-ilovaga muvofiq belgilansin.

10. Qishloq xo‘jaligiga mo‘ljallanmagan yerlar bo‘yicha tumanda ularning iqtisodiy rivojlanishiga qarab yer solig‘i stavkasiga 0,5 dan 2,0 gacha kamaytiruvchi va oshiruvchi koeffitsientlarni qo‘llagan holda yer solig‘i stavkalari 7-ilovaga hamda yuridik shaxslar bo‘yicha mol-mulk soliqlari uchun qo‘llaniladigan mutloq miqdorlari 8-ilovaga muvofiq tasdiqlansin.

11. O‘zbekiston Respublikasining mazkur Qonuni bilan 2023-yilda xalq deputatlari Kengashlarini mahalliy byudjetlarni boshqarishda, xususan mahalliy budjet xarajatlarini hududiy byudjet mablag‘lari taqsimlovchilar kesimida tasdiqlash va ularning Kengash oldidagi hisobdorligini belgilash bo‘yicha vakolatlari kengaytirilganligi inobatga olinsin.

Shuningdek, 2023-yilda quyidagi soliq turlari:

a) tuman byudjetiga to‘liq hajmda o‘tkaziladi:

jismoniy shaxslardan olinadigan mol-mulk solig‘i;

jismoniy shaxslardan olinadigan yer solig‘i;

yuridik shaxslarning mol-mulkiga solinadigan soliq;

suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliq, (elektr stansiyalari tomonidan to‘lanadigan soliq bundan mustasno);

benzinni, dizel yoqilg‘isini va gazni yakuniy iste’molchilarga realizatsiya qilishdagi aksiz solig‘i;

jismoniy shaxslarga tegishli mol-mulkni ijaraga berishdan oladigan yillik daromadi to‘g‘risidagi deklaratsiyaga asosan to‘laydigan, shuningdek, yakka tartibdagi tadbirkorlar to‘laydigan jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig‘i;

qurilish materiallari bo‘yicha yer qa’ridan foydalanganlik uchun soliq (yirik soliq to‘lovchilar tomonidan to‘lanadigan qurilish materiallari bo‘yicha yer qa’ridan foydalanganlik uchun soliq bundan mustasno);

davlat mulki bo‘yicha ijara to‘lovlaridan tushadigan tushumlar.

b) viloyatning viloyat mahalliy byudjetiga to‘liq hajmda o‘tkaziladi:

elektr stansiyalari tomonidan to‘lanadigan suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliq;

yirik soliq to‘lovchilar tomonidan to‘lanadigan qurilish materiallari bo‘yicha yer qa’ridan foydalanganlik uchun soliq;

qonunchilikda belgilangan miqdorlardagi davlat bojlari (patent bojlaridan va litsenziyalar berganlik uchun davlat bojlaridan tashqari);

qonunchilikda belgilangan miqdorlarda O‘zbekiston Respublikasining Davlat byudjetiga undiriladigan jarimalar;

ayrim turdagi tovarlarning chakana savdosiga doir huquq uchun yig‘imlar;

qonunchilikda belgilangan miqdorlarda O‘zbekiston Respublikasining Davlat byudjetiga undiriladigan boshqa yig‘imlar (bojxona organlari tomonidan undiriladigan yig‘imlardan, g‘ildirakli transport vositalari, o‘ziyurar mashinalar va ularning tirkamalari uchun undiriladigan utilizatsiya yig‘imidan, shuningdek, avtotransport vositalari oynalarining tusini o‘zgartirishga (qoraytirishga) ruxsatnoma berish uchun to‘lovdan tashqari);

qonunchilikda belgilangan miqdorlarda davlat daromadiga o‘tkazilgan mol-mulkni realizatsiya qilishdan tushgan tushumlar, mahalliy davlat hokimiyati organlarining ulushi bo‘yicha dividendlar (daromadlar) va ajratmalar;

yer uchastkalariga bo‘lgan mulk va ijara huquqini auksion orqali sotishdan kelib tushgan pul mablag‘lari;

davlat aktivlarini joylashtirish va sotish (xususiylashtirish)dan qonunchilikda belgilangan normativlar bo‘yicha olingan daromadlar.

v) viloyat byudjeti hamda tuman byudjetlari o‘rtasida quyidagi soliq turlari bo‘yicha taqsimlanadi:

aylanmadan olinadigan soliq;

yuridik shaxslardan olinadigan yer solig‘i;

Shu bilan birga, Qonunga muvofiq tuman mahalliy byudjetiga ajratma qilinadigan jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig‘idan tushumlarning (jismoniy shaxslar mol-mulkini ijaraga berishdan oladigan yillik daromadi to‘g‘risidagi deklaratsiyaga asosan to‘lanadigan, shuningdek yakka tartibdagi tadbirkorlar to‘laydigan jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig‘idan tashqari) 63 foizi;

foyda solig‘idan tushumlarning (O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti qarori bilan tasdiqlanadigan ro‘yxatga muvofiq yirik soliq to‘lovchilar, O‘zbekiston Respublikasida doimiy faoliyat olib boruvchi muassasa orqali faoliyat yurituvchi O‘zbekiston Respublikasi norezidentlari tomonidan, shuningdek, norezidentlarning to‘lov manbaida ushlab qolinadigan daromadlaridan to‘lanadigan foyda solig‘idan tashqari) 63 foizi miqdoridagi tushumlar viloyatning viloyat byudjeti hamda tuman byudjeti o‘rtasida taqsimlanishi ma’lumot uchun qabul qilinsin.

g) Tamaki mahsulotlari, mobil aloqa xizmatlari uchun aksiz solig‘i va alkogol maxsulotlari, shu jumladan, pivo uchun aksiz solig‘idan tushumlar 2022-yil 1-iyul holatiga ko‘ra tuman aholisining viloyat aholisidagi ulushiga muvofiq tuman mahalliy byudjetiga o‘tkazib beriladi.

Agar qonunchilikda mahalliy byudjetlarga o‘tkaziladigan daromadlarning taqsimlanishi nazarda tutilmagan bo‘lsa, daromadning ushbu turi viloyat byudjetiga o‘tkaziladi.

12. O‘zbekiston Ruspublikasi Prezidentining 2022-yil 25-oktabrdagi “Jamoatchilik fikri asosida shakllantiriladigan loyihalarni moliyalashtirish ko‘lamini kengaytirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-409-

sonli qaroriga asosan 2023-moliya yilidan boshlab:

a) «Obod qishloq» va «Obod mahalla» dasturlari doirasida moliyalashtiriladigan tadbirlar jamoatchilik fikri asosida «Ochiq byudjet» axborot portali orqali ovoz berish yo‘li bilan aniqlanishi.

Bunda, aholi tomonidan amalga oshirilishi taklif etilayotgan tadbirlar har bir mahalla bo‘yicha bitta loyihalar paketi shaklida ovozga qo‘yilishi;

b) Qoraqalpog‘iston Respublikasi Respublika byudjeti, viloyatlarning viloyat byudjetlari va Toshkent shahrining shahar byudjetida shakllangan qo‘shimcha mablag‘larning 30 foizi tumanda jamoatchilik fikri asosida shakllantirilgan tadbirlarni moliyalashtirish uchun tuman fuqarolar tashabbusi jamg‘armalariga mavjud aholi soni va mahallalar sonidan kelib chiqib, teng ulushlarda yo‘naltirilishi;

v) tashabbusli byudjetlashtirish jarayonlari uchun tuman byudjetining 5 foizi miqdorida, biroq kamida 6 milliard so‘m mablag‘ rejalashtirilishi belgilanganligi.

g) “Obod qishloq” va “Obod mahalla” dasturlarini jamoatchilik fikri asosida tashabbusli byudjetlashtirish jarayonlari orqali amalga oshirilishining yangi tartibi ishlab chiqilishi ma’lumot uchun qabul qilinsin.

13. Tuman hokimining birinchi o‘rinbosari (Y.Inoqov), moliya bo‘limi (M.Xakberdiyev), davlat soliq boshqarmasi (A.Kadirov) va mas’ul tashkilotlar bilan birgalikda:

tegishli byudjetlarni birinchi navbatda ish haqi va unga tenglashtirilgan to‘lovlar, oziq-ovqat va dori-darmon va kommunal xizmatlar xarajatlarining rejalashtirilishini nazarda tutgan holda shakllantirish;

mahalliy byudjeti prognoz ko‘rsatkichlarni o‘z vaqtida va samarali bajarish;

byudjet mablag‘laridan maqsadli va samarali foydalanish;

byudjet intizomiga rioya etilishi ustidan nazorat va mas’uliyatni yanada kuchaytirish;

tegishli mahalliy byudjetlarga soliqlar va boshqa majburiy to‘lovlarning to‘liq tushumini ta’minlash;

byudjet daromadlar bazasini oshirish va qo‘shimcha rezervlarni aniqlash zarurligiga alohida e’tibor qaratsin.

14. Tuman davlat soliq inpeksiyasi (A.Kadirov) O‘zbekiston Respublikasi Soliq kodeksida belgilangan vakolatlaridan kelib chiqib:

soliqlarning to‘liq va to‘g‘ri hisoblanishini hamda ushbu soliqlarni o‘z vaqtida byudjetga undirilishi ustidan soliq nazoratini kuchaytirish;

yer solig‘i, suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliq va mol-mulk soliqlari bo‘yicha doimiy tahlililar o‘tkazgan holda, soliqlarni to‘liq hisoblanishini ta’minlash hamda ushbu soliq to‘lovlari bo‘yicha soliq qarzdorligiga yo‘l qo‘ymaslik choralarini ko‘rish;

aylanmadan soliq turi bo‘yicha soliq to‘lovchilar tomonidan naqd pul aylanmalarining soliq hisobotlarida to‘liq aks ettirilishi ustidan doimiy soliq nazoratini o‘rnatish hamda zarur hollarda xronometraj va kameral soliq nazorati tadbirlarini o‘tkazish;

Bunda, mazkur yo‘nalishda jamoatchilik nazoratini kuchaytirish maqsadida fuqarolarga xarid chekini talab qilib olishni targ‘ib etuvchi ijtimoiy roliklar hamda video materiallar tayyorlab, ijtimoiy tarmoqlar va ommaviy axborot vositalarida keng targ‘ibot-tashviqot ishlarini olib borishga alohida e’tibor qaratsinlar.

xatlov ishlarini samarali tashkil etish orqali yer va mol-mulk solig‘ining soliq bazasini oshirish vazifasi yuklatilsin.

15. Majburiy ijro byurosi tuman bo‘limi (U.Akbarov) tuman davlat soliq inpeksiyasi (A.Kadirov) bilan hamkorlikda soliqlar va boshqa majburiy to‘lovlar bo‘yicha mavjud soliq qarzdorliklarini byudjetga undirish yuzasidan tegishli choralar ko‘rib borsin hamda choraklar yakuni bilan soliq qarzdorliklarining chorak boshiga nisbatan kamayib borishi bo‘yicha barcha kompleks chora-tadbirlar ko‘rish vazifasi yuklatilsin.

16. Mahalla va nuroniylarni qo‘llab quvatlash bo‘limi (U.Ergashev) jismoniy shaxslarning yer va mol-mulk soliqlari bo‘yicha joriy hisoblangan soliqlarni hamda ushbu soliqlardan mavjud soliq qarzdorliklarini undirish yuzasidan soliq organlariga amaliy yordam ko‘rsatsin.

17. Tuman ichki ishlar bo‘limi (A.Babaxanov), tuman yo‘l harakati xavfsizligi bo‘limi (Sh.Meliev),) hisoblangan boj, jarima va yig‘imlarni o‘z vaqtida o‘rnatilgan tartibda byudjetga undirish choralarini ko‘rib borsin.

18. Kengashning mahalliy byudjet, iqtisodiy islohotlarni amalga oshirish, investitsiyalar va tadbirkorlikni rivojlantirish masalalari bo‘yicha doimiy komissiyasi:

mahalliy byudjetning qo‘shimcha manbalaridan foydalanish to‘g‘risidagi hokimlik tomonidan taqdim etilgan takliflari asosida byudjet qonunchiligiga to‘liq rioya etilgan holda Kengash qaror loyihasini ishlab chiqilishiga;

Kengash qarori asosida mahalliy byudjetning qo‘shimcha manbalari hisobidan ajratilgan mablag‘larni samarali va maqsadli foydalanishi ustidan nazorat o‘rnatishga va natijalari bo‘yicha tavsiyalar berishga monitoring qilishga;

Mahalliy byudjet xarajatlarining qonunchilikda belgilangan qismining jamoatchilik fikri asosida shakllantirilgan tadbirlarni moliyalashtirishga yo‘naltirilishida ishtirok etadi va ushbu mablag‘larning maqsadli sarflanishi ustidan nazoratni amalga oshirishga mas’ul etib belgilansin.

19. Tuman hokimligi:

Tuman mahalliy byudjetini jami xarajatlarining 5 foizi hamda shakllangan qo‘shimcha mablag‘larining kamida 30 foizini jamoatchilik fikri asosida shakllantiriladigan tadbirlarni moliyalashtirish uchun “Fuqarolar tashabbusi jamg‘armasi”ga yo‘naltirsin.

Bunda, tuman xalq deputatlari, yoshlar ishlar agentligi, tuman hokimligi huzuridagi jamoatchilik kengashlari hamda yangi joriy etilgan hokim yordamchilari byudjet jarayonida fuqarolarning faol ishtirokini ta’minlash maqsadida aholiga keng targ‘ibot-tashviqot ishlarini olib borishga mas’ul etib belgilansin;

mahalliy byudjetlarning qo‘shimcha manbalari hisobidan xarid qilingan tovarlar va xizmatlar, qurilish, rekonstruksiya qilish va ta’mirlash ishlari olib borilayotgan ob’ektlar ro‘yxati, shuningdek qurilish-ta’mirlash ishlarining moliyalashtirilishi to‘g‘risidagi ma’lumotlar har chorak yakunlariga ko‘ra, keyingi chorak birinchi oyining 10 sanasiga qadar majburiy tartibda tegishli hokimlik rasmiy veb-saytlariga joylashtirib borsin.

20. Tuman hokimining birinchi o‘rinbosari (Y.Inoqov), xalq deputatlari tuman Kengashi kotibiyati, tuman hokimligi, tegishli tashkilotlar:

mahalliy byudjet daromad va xarajatlarining prognoz ko‘rsatkichlari bajarilishi hamda soliq bazasini kengaytirish yuzasidan ko‘rilgan chora-tadbirlar;

ajratilgan byudjet mablag‘laridan maqsadli va samarali foydalanishi yuzasidan erishilgan natijalar bo‘yicha Kengashga bir chorakda kamida bir marotaba hisobot kiritib borsin.

21. Tuman hokimligi Qonunda belgilangan ayrim soliqlar va to‘lov stavkalari, soliq solish tartiblari hamda boshqa ma’lumotlarni ommaviy axborot vositalarida yoritilishini ta’minlasin.

22. Tuman hokimligi matbuot xizmati:

- mazkur qaror rasmiy e’lon qilinishini va www.buka.uz rasmiy
- veb-saytiga joylashtirilishini ta’minlash tavsiya etilsin.

23. Ushbu qaror rasmiy e’lon qilingan kundan boshlab kuchga kiradi.

24. Mazkur qaror bajarilishini nazorat qilish xalq deputatlari tuman Kengashining mahalliy byudjetni shakllantirish va ijro etish, iqtisodiy islohotlarni amalga oshirish va tadbirkorlikni rivojlantirish masalalari doimiy komissiyasi va tuman hokimining birinchi o‘rinbosari Y.Inoqov zimmasiga yuklatilsin.

Kengash raisi **N.Abbosov**

Xalq deputatlari Bo‘ka tuman
Kengashining
2023 yil 11 yanvardagi
VI-66-1-10-137-K/23-son qaroriga
1-ilova

Tuman byudjeti daromadlarining 2023-yildagi asosiy prognoz ko‘rsatkichlari

T/r	Daromad turlari	Jami
JAMI		**73 672 510,0**
1	Yuridik shaxslardan olinadigan foyda solig‘i	1 701 481,0
2	Korxonalar aylanmasidan soliq	2 298 270,0
3	Jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig‘i	26 712 707,0
4	Yakka tartibdagi tadbirkorlar uchun jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig‘i	1 275 000,0
5	Yakuniy iste’molchilarga benzin, dizel yoqilg‘isi va gaz realizatsiya qilishdagi aksiz solig‘i	13 851 842,0
6	Yuridik shaxslarning mol-mulkiga solinadigan soliq	2 403 046,0
7	Jismoniy shaxslarning mol-mulkiga solinadigan soliq	3 563 290,0
8	Yuridik shaxslar yer solig‘i	7 579 346,0
9	Jismoniy shaxslardan olinadigan yer solig‘i	12 746 883,0
10	Qurilish materiallari bo‘yicha yer qa’ridan foydalanganlik uchun soliq	0,0

11	Suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliq	1 413 444,0
12	Davlat bojlari	0,0
13	Jarimalar	0,0
14	Davlat unitar korxonalari dividend tushumlari	0,0
15	Davlat mulki bo‘yicha ijara to‘lovlari	127 201,0
16	Yig‘imlar	0,0
17	Xususiylashtirish	0,0
18	Boshqalar	0,0
	Mobil aloqa xizmati va alkogol mahsulotlari, shu jumladan pivo uchun aksiz solig‘i tushumlaridan tegishli ravishda o‘tkazib beriladigan daromad	**21 275 352,0**
19	*Alkogol mahsulotlari, shu jumladan pivo*	*8 606 970,0*
20	*Mobil aloqa xizmati*	*3 691 890,0*
21	*Tamaki mahsulotlari aksiz solig‘i*	*8 976 492,0*
	Jami daromad	**94 947 862,0**

Xalq deputatlari Bo‘ka tuman
Kengashining
2023 yil 11 yanvardagi
VI-66-1-10-137-K/23-son qaroriga
2-ilova

2023-yil uchun tuman byudjetidan birinchi darajali byudjet mablag‘larini taqsimlovchilarga ajratiladigan mablag‘larning cheklangan miqdorlari

ming so‘mda

№	Ko‘rsatkichlar	Summa
	Xarajatlar miqdori, Jami	**171 396 426,0**
1.	**Tuman maktabgacha ta’lim bo‘limi**	**6 374 654,0**
	shu jumladan:	
	joriy xarajatlar	6 374 654,0
2.	**Tuman xalq ta’limi bo‘limi**	**11 634 675,0**
	shu jumladan:	
	joriy xarajatlar	11 634 675,0
3.	**Tuman sog‘liqni saqlash bo‘limi**	**64 410 940,0**
	shu jumladan:	
	joriy xarajatlar	64 410 940,0
4.	**Tuman madaniyat bo‘limi**	**1 397 045,0**
	shu jumladan:	
	joriy xarajatlar	1 397 045,0
5.	**Tuman sport bo‘limi**	**4 715 193,0**
	shu jumladan:	
	joriy xarajatlar	4 715 193,0
6.	**Tuman obodonlashtirish boshqarmasi**	**12 946 126,0**
	shu jumladan:	
	joriy xarajatlar	12 946 126,0
7.	**Bolali oilalarga va kam ta’minlangan oilalarga nafaqalar va kompensatsiyalar**	**34 384 002,0**
	shu jumladan:	
	joriy xarajatlar	34 384 002,0
8.	**Irrigatsiya tizimi havza bo‘limi**	**2 239 354,0**
	shu jumladan:	
	joriy xarajatlar	2 239 354,0
9.	**Ozodlikdan mahrum etish jazosini o‘tab bo‘lgan fuqarolarga «dastlabki ijtimoiy-moddiy yordam paketi»**	**27 600,0**
	shu jumladan:	
	joriy xarajatlar	27 600,0
10.	**Ijtimoiy ko‘nikma markazlari**	**139 758,0**
	shu jumladan:	
	joriy xarajatlar	139 758,0
11.	**Veterinariya va chorvachilikni rivojlantirish bo‘limi**	**1 158 940,0**
	shu jumladan:	
	joriy xarajatlar	1 158 940,0
12.	**Fermerlar xo‘jaliklari buxgalteriya markazi**	**1 016 713,0**

	shu jumladan:	
	joriy xarajatlar	1 016 713,0
13.	**Davlat boshqaruv idoralari**	**17 278 149,0**
	shu jumladan:	
	joriy xarajatlar	17 278 149,0
14.	**Fuqarolarning o‘zini o‘zi boshqarish organlarini saqlash**	**3 121 141,0**
	shu jumladan:	
	joriy xarajatlar	3 121 141,0
15.	**Mahalliy budjetlarda hokim yordamchilarining tavsiyalari asosida mahalla infratuzilmasini yaxshilash uchun**	**850 452,0**
	shu jumladan:	
	joriy xarajatlar	850 452,0
16.	**Zahira jamg‘armasi**	**1 616 947,0**
	shu jumladan:	
	joriy xarajatlar	1 616 947,0
17.	**Fuqarolar tashabbusi jamg‘armasi**	**8 084 737,0**
	shu jumladan:	
	joriy xarajatlar	8 084 737,0

Xalq deputatlari Bo‘ka tuman
Kengashining
2023 yil 11 yanvardagi
VI-66-1-10-137-K/23-son qaroriga
3-ilova

Umumdavlat soliqlaridan tuman mahalliy byudjetlariga ajratmalar me’yori

T/r	Shahar va tumanlar nomi	Jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig‘i	Yuridik shaxslardan olinadigan foyda solig‘i	Yuridik shaxslarning mol-mulkiga solinadigan soliq	Yuridik shaxslardan olinadigan yer solig‘i	Benzinni, dizel yoqilg‘isini va gazni yakuniy iste’molchilarga realizatsiya qilishdagi aksiz solig‘i	Aylanma-dan olinadi-gan soliq	Suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliq (elektr stansiyalari tomonidan to‘lanadigan soliq bundan mustasno)	Qurilish materiallari bo‘yicha yer qa’ridan foydalanganlik uchun soliq (yirik soliq to‘lovchilar tomonidan to‘lanadigan qurilish materiallari bo‘yicha yer qa’ridan foydalanganlik uchun soliq bundan mustasno)
1	**Bo‘ka tumani**	63	63	100	80	100	30	100	0

Xalq deputatlari Bo‘ka tuman
Kengashining
2023 yil 11 yanvardagi
VI-66-1-10-137-K/23-son qaroriga
4-ilova

Tuman byudjetining
2023-yil daromadlari va xarajatlari prognozlari

ming so‘mda

T/r	Hudud nomi	Daromad	Xarajat
1	Bo‘ka tumani	94 947 862,0	171 396 426,0
	JAMI	**94 947 862,0**	**171 396 426,0**

Xalq deputatlari Bo‘ka tuman
Kengashining
2023 yil 11 yanvardagi
VI-66-1-10-137-K/23-son qaroriga
5-ilova

Tuman byudjetiga 2023-yilda viloyat byudjetidan ajratiladigan tartibga soluvchi byudjetlararo transfertlar miqdorlari

ming so‘mda

T/r	Shahar va tumanlar	Summa
1	Bo‘ka tumani	76 448 564,0
	JAMI	**76 448 564,0**

Xalq deputatlari Bo‘ka tuman
Kengashining
2023 yil 11 yanvardagi
VI-66-1-10-137-K/23-son qaroriga
6-ilova

Tuman byudjetida yo‘l qo‘yiladigan eng kam mablag‘lar miqdori

ming so‘mda

T/r	Hudud nomi	Miqdor
1	Bo‘ka tumani	1 100 332,0
JAMI		**1 100 332,0**

Xalq deputatlari Bo‘ka tuman
Kengashining
2023 yil 11 yanvardagi
VI-66-1-10-137-K/23-son qaroriga
7-ilova

Qishloq xo‘jaligiga mo‘ljallanmagan yerlar bo‘yicha tuman va shaharlar kesimida yer solig‘i stavkalari uchun 2023-yilda belgilangan koeffitsientlar

T/r	Tuman va shaharlar nomi	Yuridik shaxslardan undiriladigan yer solig‘i stavkalari, 1 ga uchun		Jismoniy shaxslar bo‘yicha, 1 kv.m uchun	
		Koeffitsient (0,5 dan 2 gacha)	Yer solig‘i stavkasi 2023 yil uchun (ming so‘mda)	Koeffitsient (0,5 dan 2 gacha)	Yer solig‘i stavkasi 2023-yil uchun (so‘mda)
	Bo‘ka tumani	**0.90**	**29 700,0**	**0.90**	**267,30**
1	Achamayli MFY	1	29 700,0	1	267,30
2	Achamayli Fayz Baraka MFY	1	29 700,0	1	267,30
3	Baxmal MFY	0.9	26 730,0	0.9	240,57
4	Beshkapa MFY	1	29 700,0	1	267,30
5	Bo'ka MFY	0.8	23 760,0	0.9	240,57
6	Bunyodkor MFY	1.3	38 610,0	1.2	320,76
7	Bo`ston MFY	0.9	26 730,0	0.9	240,57
8	Guliston MFY	1.3	38 610,0	1.2	320,76
9	Dashtobod MFY	0.9	26 730,0	0.9	240.57
10	Do`stlik MFY	1.3	38 610,0	1.2	320,76
11	Jag`lbayli MFY	1	29 700,0	1	267,30
12	Jo`raobod MFY	0.8	23 760,0	0.9	240,57
13	Ibrat MFY	1	29 700,0	1	267,30
14	Istiqlol MFY	0.9	26 730,0	0.9	240,57
15	Katta Ravot MFY	0.9	26 730,0	0.9	240,57
16	Kiyikchi MFY	0.9	26 730,0	0.9	240,57
17	Koraquduq MFY	1	29 700,0	1	267,30
18	Koraqo`yli MFY	0.9	26 730,0	0.9	240,57
19	Ko`korol MFY	0.8	23 760,0	0.9	240,57
20	Quldiroq MFY	1	29 700,0	1.1	294,03
21	Qo`ldoshtepa MFY	1	29 700,0	1	267,30
22	Ko`chqor so`ygan MFY	1	29 700,0	1.1	294,03
23	Moytepa MFY	0.9	26 730,0	0.9	240,57
24	Madaniyat MFY	1.3	38 610,0	1.2	320,76
25	Mirzabek MFY	0.9	26 730,0	0.9	240,57
26	Navro`z MFY	1.3	38 610,0	1.2	320,76
27	Novobod MFY	0.9	26 730,0	0.9	240,57
28	Oltish MFY	0.9	26 730,0	0.9	240,57
29	Parkent MFY	1	29 700,0	1	267,30
30	Ramadon MFY	1	29 700,0	1	267,30
31	Rovot MFY	0.9	26 730,0	0.9	240,57
32	Samarqand MFY	0.9	26 730,0	0.9	240,57
33	Toshloq MFY	1.3	38 610,0	1.2	320,76

34	O`zbek MFY	1.3	38 610,0	1.2	320,76
35	O`rta tepa MFY	0.9	26 730,0	0.9	240,57
36	Xo`jaqo`rg`on MFY	1	29 700,0	1	267,30
37	Chavlisoy MFY	0.9	26 730,0	0.9	240,57
38	Co`lobod MFY	0.9	26 730,0	0.9	240,57
39	Yangi qo`rg`on MFY	0.9	26 730,0	0.9	240,57
40	Yangi hayot MFY	1.3	38 610,0	1.2	320,76
41	Yangiobod MFY	0.9	26 730,0	1	267,30
42	Yangiobod MFY	1	29 700,0	1.1	294,03
43	Shodlik MFY	1	29 700,0	1.1	294,03
44	Ezgulik MFY	1	29 700,0	1	267,30

Xalq deputatlari Bo‘ka tuman
Kengashining
2023 yil 11 yanvardagi
VI-66-1-10-137-K/23-son qaroriga
8-ilova

Yuridik shaxslar bo‘yicha mol-mulk soliqlari uchun qo‘llaniladigan mutloq miqdorlari

T/r	Tuman va shaharlar nomi	Koeffitsient (mutloq miqdor)	Belgilangan qiymat (so‘m)
1	Bo‘ka tumani	0.80	800 000.0